

YOSHLARNING XORIJIY TILLARNI O'ZLASHTIRISH DAVRIDA YUZAGA KELAYOTGAN TIL TO'SIQLARI VA ULARNING SAMARALI YECHIMLARI

Dildora Ko'liyeva

Guliston davlat pedagogika institute Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi
dildorakuliyeva4@gmail.com

Kuldasta Kummetova

Guliston davlat pedagogika institute O'zbek tili va tillarni o'qitish kafedrası o'qituvchisi
kguldasta@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezis hozirgi kunda yoshlarning xorijiy tillarni o'zlashtirish mobaynida duch kelayotgan til to'siqlari va qiyinchiliklari hamda ularga qanday yechim topilishi haqida yozilgan. Bu borada turli olimlarning tadqiqot nazariyalari, fikr-mulohazalari va ilmiy qarashlari haqida mulohazalar yuritilgan. Duch kelayotgan muammolar qanday usullar orqali yengib o'tilishi, qanday choralar ko'rilishi va ular asosida xulosalar chiqarilgan. Bu davrda o'rganuvchilar nimalarga e'tibor qaratishi kerak, qaysi faktorlarni birinchi o'ringa qo'yish kerakligi haqida yetarlicha maslahat va ko'rsatmalar mujassamlashgan.

Kalit so'zlar: Til ko'nikmasi, psixologik to'siqlar, madaniy tafovutlar, muntazam shug'ullanish, xohish, ilmiy nazariyalar.

LANGUAGE BARRIERS ENCOUNTERED BY YOUNG PEOPLE DURING FOREIGN LANGUAGE ACQUISITION AND THEIR EFFECTIVE SOLUTIONS

Abstract. This thesis discusses the language barriers and difficulties encountered by young people in the process of learning foreign languages, as well as potential solutions to these challenges. It presents reflections on research theories, opinions, and scientific views of various scholars on this subject. The thesis explores methods for overcoming these obstacles, measures to be taken, and draws conclusions based on these findings. It also provides comprehensive advice and guidelines on what learners should focus on during this period and which factors should be prioritized in language acquisition.

Keywords: Language proficiency, psychological barriers, cultural differences, consistent practice, motivation, scientific theories.

ЯЗЫКОВЫЕ БАРЬЕРЫ, ВОЗНИКАЮЩИЕ У МОЛОДЕЖИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ, И ИХ ЭФФЕКТИВНЫЕ ПУТИ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Аннотация. Данный тезис посвящен языковым барьерам и трудностям, с которыми сталкивается современная молодежь в процессе освоения иностранных языков, а также способам их преодоления. В работе рассматриваются исследовательские теории, мнения и научные взгляды различных ученых по этому вопросу. Анализируются методы преодоления возникающих проблем, предлагаемые меры и делаются соответствующие выводы. Представлены подробные рекомендации и указания о том, на что следует обращать внимание обучающимся и какие факторы необходимо ставить на первое место в процессе изучения языка.

Ключевые слова: Языковые навыки, психологические барьеры, культурные различия, регулярные занятия, стремление, научные теории.

Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'zlashtirish dunyo miqyosida keng tarqalgan jarayon hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, til o'rganuvchilarning soni ham ko'pchilikni tashkil etadi. Nima deb o'ylaysiz, chet tillarini o'rganish rostan ham juda katta miqdordagi kuchni talab etadimi? Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'rganuvchilar tillarni o'zlashtirish jarayonida bir qancha qiyinchiliklarga uchramoqda. Aslida, bu tabiiy hol. Amerikalik professor Stephen Ryanning izlanishari natijasida bir nechta muammolar ko'rib chiqiladi. Ko'pchilik til o'rganuvchilari tillarni o'zlashtirish davomida muloqotga kirishish jarayonida qiynalishadi, aniqrog'i dastlab ularda qo'rquv va ishonchsizlik hissi mavjud bo'ladi. Nima uchun? Chunki ular xato qilib qo'yishim mumkin, gaplarimning mazmuni bir-biriga mos kelmay qolishi mumkin degan ikkilanishlar mavjud bo'ladi, shuning uchun ham tezda muloqotga kirishib ketishi oson bo'lmaydi. Psixologik jihatdan qaralsa, bu turdagi insonlar, asosan, introvert turiga mansub insonlardir. Ya'ni insonlar bilan ko'p muloqotga kirishmaydigan, o'ziga ishonchi yetarli darajada bo'lmagan insonlar hisoblanadi. Amerikalik olimlar tomonidan ingliz tilini yuqori darajada o'rgangan maktab o'quvchilari o'rtasida so'rovnoma o'tkaziladi. So'rovnomaning maqsadi tillarni o'rganish jarayonida eng ko'p uchrayotgan til to'siqlari va murakkab jihatlarini aniqlashtirish bo'lgan. Shundan kelib chiqadiki, til o'rganuvchilarning katta miqdori muloqotga oid qiyinchiliklarni keltirishgan. Ya'ni 63,6% so'rovnomada ishtirok etgan o'quvchilar muloqotga kirish jarayonining murakkabligini izohlashgan. Bu muammoning yechimi sifatida o'rganuvchilardan muntazam ravishda o'rgangan ma'lumotlarni takrorlash va ularni o'zlarining suhbatlarida to'g'ri qo'llashlari; nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida oyna qarshisida ishlash tavsiya etiladi. Buning natijasida ular qanday qo'l harakatlari hamda emotsiyalar bilan

gapirayotganliklarini ko'rib turish imkonini yaratadi va bu o'zlarini erkin his qilishiga, fikrlarining tushunarli va aniq ifodalashiga zamin yaratadi. Qo'shimcha qilib aytganda, ularning uyatchanlik, ikkilanish va o'zini past baholash jihatlari sekinlik bilan bartaraf bo'ladi. [592-593]

Eng ko'p uchrayotgan muammolardan yana birlari – bu so'zlarning noto'g'ri talaffuz qilinishi, grammatik qoidalarga haddan tashqari ko'p vaqt sarflash. Har bir tilning o'ziga xos qonun-qoidalarining ko'p va sezilarli darajada qiyin bo'lganligi sababli ular sizni biroz chalg'itishi mumkin. Buning natijasida yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga bo'lgan xohish susayadi. Ba'zi insonlar nafaqat psixologik “zarba”larga, balki madaniy tafovutlardagi qiyinchiliklarga uchraydi. Buning yorqin misoli shuki, biz yangi so'zlarni o'rganish davomida turli xil iboralar, so'z birikmalariga duch kelamiz, ko'pincha ularning ma'nosini to'liq anglamaymiz. Chunki iboralar va so'z birikmalar ularning mahalliy hayoti bilan bog'liq bo'lgan holda yuzaga keladi. Misol tariqasida *ingliz, rus va o'zbek* tilidagi iboralarni ko'rib chiqamiz. “*Это все цветочки*” – bu hali holvasi, oldinda hali bundan ko'pi kutib turibdi degan ma'noni anglatadi. Agar to'g'ridan-to'g'ri tarjima qiladigan bo'lsak, hammasi gullar degan tarjima hosil bo'ladi va bu gapning ma'nosiga tushunmaslik hamda inson o'zini suhbat davomida noqulay his qilishiga olib keladi. “*When pigs fly?*” – to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilsak, cho'chqalar qachon uchadi degan mazmundagi so'roq so'z hosil bo'ladi. Lekin uning asl mazmuni – imkonsiz, bajara olish koeffitsienti juda kam degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilida shu mazmunga yaqin bo'lgan ibora mavjud: *tuyaning dumi yerga tekkanda*.

Do'ppisini osmonga otmoq – nimadir sababli juda xursand bo'lmoqlikni anglatadi. Bu boshqa xalqlar uchun tushunarsiz tuyilishi tabiiy hol, biz ta'kidlayotgan ma'noni tushunmasligi mumkin. Xuddiki, biz ularning iboralarini to'liq tushunmaganimiz singari. Lekin bu so'zlarni ma'nosini to'liq o'rganib, muntazam ravishda o'z suhbatlarimizda faol tarzda foydalana olsak, biz uchun noqulayliklar tug'dirmaydi.

Professor va psixolog Dr. James Asherning ta'kidlashicha, bolalar dars davomida ko'p vaqtini o'rindiqla, ya'ni bitta joyda uzoq vaqt davomida o'tirishini aytadi. Bu esa bolalarning zerikishi va charchoq holatiga sabab bo'ladi. Natijada darsga bo'lgan diqqat – e'tibor pasayadi. Bu holatda James Asher, darsda ko'proq faol bo'lish bilan birga suhbat davomida jestlar, imo-ishoralar va emotsiyalarni ham birgalikda qo'llashni tavsiya etadi. Bu metod nafaqat darsning mazmundorligi, qiziqarli ekanligi, balki erkin muhitini yaratadi. [30]

Yangi Zelandiyalik tadqiqotchi Dr. Sulzberger universitet talabalarga muloqotga oid bo'lgan savolni taqdim etadi. Savol shundan iborat: “chaqaloqlar qanday qilib ona tillarini o'rganishadi, ularda bu jarayon qanday kechadi?” Ular bu jarayonni tinglash orqali amalga oshiradi. Ular grammatik qoidalarni o'rganishmaydi, matnlardan foydalanishmaydi, test ishlashmaydi. Ammo ular o'z tillarida professional darajada gapira olishadi, yuqoridagi amallarni

bajarmasligiga qaramay. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, qandaydir tilni o'rganish jarayonida 80% tinglash tavsiya etiladi, hattoki siz boshlang'ich darajada bo'lsangiz ham. Chunki tinglash orqali biz ko'p lug'at, grammatika o'rganamiz va gapirish qobiliyatimiz tezlashadi. Shuning uchun Sulzberger tomonidan *"Learn with your ears, not with your eyes"* degan fikr ilgari suriladi, ya'ni quloqlaringiz bilan o'rganing, ko'zlaringiz bilan emas. [60-62]

Tillarni o'rganishda, avvalo, sizda qiziqish, ishtiyoq va bu tilga muhabbat bo'lishi kerak. Chunki tillarni o'rganishda davomiylik asosiy jihatlardan biri. Muntazam ravishda mashq qilish, albatta o'z samarasini beradi va sizdan ma'suliyatli bo'lish so'raladi. Muhimi o'rganishdan, tatbiq qilishdan to'xtamaslik lozim. Zeroki, siz o'rganganingiz sari hech narsani bilmasligingizni anglab yetasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.J.Hoge. Effortless English is published by Efforless English LLC 1702. A, Street, Ste. C. Sparks, NV 89431. 30 b.
2. Stephn Rayn." The psychology learning foreign languages of study".Cambridge University Press. 2009. 593-595 b.
3. Amy Orsborne." The psychology book". Dorling Kindersly nashiryoti. 2012y. 177 b.
4. <https://www.loecsen.com>.